

Bahoriy taomlar saylida

2 - talabalar turar joyida yashovchi talaba qizlar hamda tarbiyachi pedagog D. Shukurlaeva va talabalar kengashi raisi F. Maxmudovlar tashabbusi bilan "Bahoriy taomlar" sayli tadbiri o'tkazildi, "Bahoriy taomlar"saylida talaba qizlar o'z qo'llari bilan pazandalik mahoratlarini ko'rsatib "Ko'k somsa, chuchvara, xonim" kabi xilma-xil Bahoriy taomlarni did bilan tayyorlab namoyish etishdi. Shu jumladan dasturxonimizda bahoriy ko'katlardan tayyorlangan xilma-xil salatlar ham tadbir ishtirokchilarining kayfiyatini ko'targan holda, ishtahalarini ochdi deyish mumkin.



Tadbirda institut prorektori R. Choriyev, fakultetlar dekanlari o'rinnbosarlari O. Ro'ziyev, A. Azimov, O. Xabibullayevlar ishtirok etishdi. Tadbirni 2-TTJ tarbiyachi pedagogi D. Shukurlayeva tashkillashtirdi. Shunday mahoratli pazanda, oqila, bilimli, qizlarimiz borligidan faxrlanamiz, ularni qo'llab-quvvatlash har birimizning burch va vazifamizdir.



TIQXMMI matbuot xizmati